

**BUXORO AMRLIGI DAVRIDA CHIROQCHI BEKLIGI
MASKANLARINING O'RGANILISHI**

*Abduraimova Sabohat Ergash qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası
Assistent o'qituvchisi
E-mail: sabohata535@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Buxoro Amrligi tarkibida bo'lgan Chiroqchi bekligi aholisining yashash tarzi, ijtimoiy ahvoli, mehnat munosabatlari aks ettirilgan. Bu ziddiyatli davrda Chiroqchi bekligi Buxoro Amrligi ijtimoiy iqtisodiy hayotida alohida ahamiyat kasb etganligi va ularning turmush tarzi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amrligi, Chiroqchi bekligi, Sho‘r-quduq, Uch-quduq, Jar-quduq, Qo‘s-quduq, Go‘r-quduq, Gala-quduq, Uz-quduq, Chor-quduq, Yetti-quduq, “shuvoq” bargi, sho‘ra, Beglarsoy, Qushbegi, G’uzor, Qarshi.

Buxoro amirligiga qarashli ma‘muriy-hududiy birliklardan biri bo‘lmish Chiroqchi bekligi o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra amirlik ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Beklik tarixiga oid yozma ma‘lumotlar nisbatan kam bo‘lgani uchun aholining xo‘jalik turmush tarzi va iqtisodiy-maishiy hayotini yoritish birmuncha mushkul. Aslida bu holatga beklik aholisining ijtimoiy-madaniy hayoti tarixini yoritishda ham duch kelinadi. Shunga qaramay, Buxoro amirligiga tegishli ayrim tarixiy asarlar va Qushbegi arxiv hujjatlaridagi aholi maskanlari bilan bog‘liq ma‘lumotlar hamda XIX – XX asr boshlari oralig‘ida hududda bo‘lgan asosan rus, qisman esa boshqa Yevropa vakillari yozib qoldirgan qaydlar, shuningdek, XX asr ilk yarmiga tegishli etnografik materiallar asosida Chiroqchi bekligi aholisining kundalik turmushi, xo‘jaligi, tirikchilik manbai va hokazolar haqida muayyan tarixiy tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin.[1,23]

Chiroqchi bekligida chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi ko‘pchilikni tashkil etib, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, ular beklikdagi barcha amlokliklardagi qishloq va ovullarda istiqomat qilishgan. Asosan, qo‘y va echki, qisman esa yirik shoxli qoramollarga ega bo‘lgan beklik aholisi orasida tuyachilik ham o‘ziga xos o‘rin tutgan. Aholi bahor, yoz va kuz oylarida yaylovlarda o‘tlatish orqali o‘z chorvalarining qornini to‘yg‘izib, qish oylarida esa g‘amlab qo‘yilgan yem-xashak bilan boqishgan. Mol-hollarning suvga bo‘lgan ehtiyoji quduq suvlari orqali qondirilgan. Quduqlar Qashqadaryo vohasining asosan cho‘l va dasht hududlarida ko‘pchilikni tashkil etib, Chiroqchi, G’uzor va Qarshi bekliklaridagi amlokliklarga

qarashli aholi maskanlarida mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, katta qismi dashtlardan iborat Chiroqchi bekligi qishloqlarida o‘nlab quduqlar mavjud bo‘lgan. Amlokliklardagi qishloqlarning nomi Sho‘r-quduq, Uch-quduq, Jar-quduq, Qo‘sh-quduq, Go‘r-quduq, Gala-quduq, Uz-quduq, Chor-quduq, Yetti-quduq deb atalgani ham shu kabi omillar bilan bog‘liq.[2,45]

Chiroqchi bekligidagi qishloqlarning kichik bir qismi tog‘oldi hududlar yoki toqqa yaqin joylashgan qir-adirlardagi buloqlar orqali o‘zlarining suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirganlar. Zarafshon tog‘larining bir qismi – Jom tog‘lariga yaqinidagi Besh-chashma amlokligining nomidan ko‘rinib turganidek, ushbu amloklikka qarashli qishloq Qo‘chqor-buloq toponimi yuzaga kelishida ham ana shunday suv manbaini ko‘rishimiz mumkin. Kezi kelganda aytib o‘tish kerak, Samarqand viloyatiga qarashli bo‘lgan Jom mavzesi bir necha tog‘oldi qishloqlarni o‘z ichiga olib, aholisi Chiroqchi bekligi aholisi bilan yaqin iqtisodiy-madaniy aloqalarga ega bo‘lgan.

Shuningdek, tog‘oldi hududlarga yaqin qishloqlar aholisi ekin-tikinlarni sug‘orish maqsadida maxsus suv yig‘iladigan inshootlar qurishgan. Bunday inshootlar “band” deb atilib, qish va bahor fasllarida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan kezlarda ortiqcha suvlarning bekorga sarflanib ketishining oldini olish, ehtiyoj bo‘lgan yoz va kuz oylarida undan unumli foydalanish uchun aholi hashar orqali yoki hokimiyat vakillarining tashabbusi bilan tog‘oldi hududlarida bandlar barpo qilingan. Besh-chashma amlokligiga qarashli qishloqlar orasida Qiz-band, Arabbandi, Xon-band (Xom-band) kabi aholi maksanlarining bo‘lgani bu qarashni tasdiqlaydi. [3,57]

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, Chiroqchi bekligining Besh-chashma amloklikligidagi bandlardan biri Xon-band deb atalgani ham shu an‘ana bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. X asrga tegishli Forish tumanidagi Pasttogg‘ darasida qurilgan va hozirgi kunda Xon-band deb atalayotgan suv inshooti, XVI asrga oid Nurota tumanidagi Beglarsoy darasida qurilgan Abdullaxon bandi yirik suv to‘g‘onlarining davlat boshliqlari tashabbusi bilan qurilgani yoki shunday ishlarni amalga oshirgan kishilar hokimiyat vakillari – amaldorlar bo‘lgani bilan bog‘liq.

Chiroqchi bekligida oqar suvlar kam bo‘lgani uchun asosan yerdan chuqur qilib qazilgan quduqlardan suv tortib olish orqali o‘z ehtiyojlarini qondirganliklari bir qator xorijlik sayyoh va elchilarining diqqatini o‘ziga tortgan. Chiroqchi bekligida yo‘lda oqar suv bo‘lмаган deyarli 50 chaqirimdan ortiq masofada o‘nlab quduqlar joy olib, ular shimolda Jom tog‘idan to Qashqadaryo daryosigacha, ya‘ni Qarshi shahri atroflarigacha cho‘zilib ketgan keng dashtdagi qishloqlar aholisining suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirgan. Jomga yaqin Umakay qishlog‘idan Qashqadaryoga qadar yaxshi suvli quduqlar ko‘p. Quduqlarning chuqurligi har xil: Chiyalda 10-15 arshin bo‘lsa, Umakayda ham shunga yaqinroq bo‘lgan, qir-adirlarda esa quduqlar chuqurroq bo‘lib, 25 arshindan 40-50 arshingacha yetgan. Masalan, Besh-chashma amlokligidagi Sho‘r-quduq qishlog‘ida quduqlarning chuqurligi 40, hatto 50 arshingacha yetib, chuqurligi

qanchalik katta bo'lsa, suv olish imkoniyati yuqori bo'lgan. Qishloq va ovullarning deyarli har biri alohida-alohida suv bilan ta'minlanib, kuniga 1000-2000 qo'y suv bilan ta'minlagan. [4,65]

Quduq devorlarining o'pirilib tushib, suv ko'zları yopilib qolishi xavfi katta bo'lgani uchun aholi quduqdan suv olayotganda nihoyatda ehtiyyotkorlik qilishiga to'g'ri kelgan.

Chiroqchi bekligidagi aholining turarjoylari Buxoro amirligining dasht va cho'l hududlaridagiga o'xshash bo'lib, XX asr boshlarigacha "qora-uy" deb ataluvchi o'tovlar asosiy boshpana vazifasini bajargan. Beklikda ham boshqa joylarda, xususan, qo'shni Samarqand viloyati, Qarshi va G'uzor tumanlarida bo'lgani kabi ko'chmanchi aholi turarjoylari va o'troq aholi uylariga qarab farqlangan. Mintaqaning qadimiy shaharlarda bo'lgani kabi beklik markazi Chiroqchi qo'rg'oni (shaharchasi)da asosan paxsadan, qisman pishiq g'ishtdan qurilgan turarjoylar bo'lsa-da, beklikning boshqa hududlarida ko'pincha turarjoylar qora-uy (o'tov)lardan iborat bo'lgan. Shu o'rinda beklikning bosh ma'muriy boshqaruvi markazi Chiroqchi rus mualliflari tomonidan XIX – XX asr boshlarida shahar sifatida tilga olingan. [5,62]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida beklik hududida bo'lgan sayyoh, elchi yoki boshqa soha vakillari ko'chmanchi o'zbeklar "yurta" – o'tovda yashashlariga e'tibor qaratib, o'troq aholining turarjoylari turli xil ekaniga urg'u berishgan. Shuningdek, beklikning ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholisi "to'la", "er-to'la" deb ataladigan joylar ham bo'lib, bunday inshootlardan turli mahsulotlarni salqinda saqlash uchun yerni qazib quriladigan yerosti omborlari sifatida foydalanilgan. Ba'zan esa aholi ehtiyoj tug'ilgan ana shunday to'lalarda yashab, undan boshpana sifatida foydalanish uchun moslashtirganlar (Hozirgi kunda ana shunday yerto'lalarning o'rni Chiroqchi va Ko'kdala tumanlarining Samarqand viloyatiga tutash qir-adirlarida saqlanib qolgan – *mual*.).

Rus mualliflarning qayd etishicha, o'troqlarning uylari oddiy paxsadan qilingan, nisbatan kichikroq binolardan tashkil topib, ba'zan shaharliklarniki kabi ko'rinishdagi uylar ham uchrab turgan. Chamasi, Buxoro amirligi hududida bo'lgan xorijliklar "shaharlardagi kabi uylar" deganda qishloqning o'ziga to'q oilalari yashaydigan boloxonali yoki hashamatli qilib qurilgan uylarni ko'zda tutgan.

Ko'pchilik xorijlik mualliflar Buxoro amirligi aholisi, xususan, Chiroqchi bekligida qish paytlari uylarni isitish ancha qiyinchilik tug'dirishi haqida yozsalar-da, ayrim mualliflar aholi chorva mollari tezagidan unumli foydalanib, ovqat pishirish, suv isitish kabi ehtiyojlarga ishlatalish uchun tappi tayyorlab qo'yishlari haqida ham yozishgan. Shuningdek, daraxt shox-shabbalari topilishi qiyin bo'lgan qishloqlarda aholi "yantooq", "jinjak" kabi bo'tasimon o'simliklar, shuningdek, ham supurgi yasash, ham yoqilg'i sifatida ishlataladigan "burgan" deb ataluvchi o'simlik turidan unumli

foylanishgan. Chiroqchi va Qarshi bekligi oralig‘ida joylashib, shimolda Samarqand viloyatiga tutashib ketgan O‘rtacho‘l deb ataluvchi dashtda ushbu o‘simlik turlari mo‘l bo‘lib, bahor yaxshi kelgan chog‘larda burganning bo‘yi 2 metrgacha yetgan. Shuningdek, ham chorva mollari uchun qishliq ozuqa, ham uy-ro‘zg‘or ishlarida yoqilg‘i sifatida foydalanish maqsadida “tuyaqorin”, “kakra”, “quziquloq”, “karrak” deb ataluvchi bo‘tasimon o‘simliklar g‘amlab qo‘yilgan. Shuningdek, beklikning dasht hududlarida “shuvoq” deb ataladigan yaxshi yonadigan o‘simlik turidan ham foydalanilgan. Aytib o‘tilgan o‘simliklar orasida eng keng tarqalgani yantoq bo‘lib, asosan tuya, qo‘y va echkilar qishda ushbu tikanli o‘simlik turi bilan boqilgan, eshak, ot va qoramollar yantoq yemagan. Ular “shuvoq” bargi, “sho‘ra” (qorasho‘ra, yalpoqsho‘ra), ajirim kabi o‘tlar bilan boqilib, ushbu o‘simliklarning bir qismi sug‘oriladigan maydonlarda ko‘proq uchratilgan. Shuningdek, qishda mol-hollarning ozuqasi sifatida yoz oylarida jinjak o‘simligini g‘amlashga katta e‘tibor qaratilgan. Jinjakni ko‘pincha echki, qo‘y va otga berishgan.[6,49]

Chiroqchi bekligi qishloqlari orasida ham ichki yo‘llar bo‘lib, ular aravada yurishdan ko‘ra ko‘proq yayov va otda yurishga mos bo‘lgan. Hududda bo‘lgan rossiyalik vakillar Beklamish amlokligidan o‘tuvchi yo‘lning markaziy yo‘llardan biri ekanini yozib, bu yo‘l orqali g‘arbg‘a – Buxoroga ketuvchi yo‘l, sharqqa – Chiroqchi bekligi markaziga va Shahrisabzga eltuvchi katta yo‘llar haqida to‘xtalib o‘tishgan. Shuningdek, Jom tomondan boshlangan yo‘l Chiyal amlokligi orqali Ariq-ochgan va Chim amlokligidan o‘tib, G‘uzorga tutashgan. Samarqand – Qarshi yo‘nalishidagi yo‘l bir tomondan Chiroqchi bekligining shimoli-g‘arbiy va janubi-g‘arbiy hududlaridan o‘tib, oraliqda bir necha kichik tarmoq yo‘llar asosan yayov va ulov (ot, eshak, tuya) uchun mos bo‘lsa, har ikkala shaharni bog‘lovchi asosiy yo‘l o‘nlab qishloqlar yonidan o‘tib, unda asosan aravada o‘tish imkoniyati bo‘lgan. Qarshidan Samarqandga qarab yo‘lga chiqqan yo‘lovchilar Qo‘ng‘irtog‘ – Neko‘z orqali dastlab Beklamish amlokligiga, keyin esa unga qo‘shni Besh-chashma amlokligi qishloqlaridan Sho‘r-quduqdan o‘tgan va Samarqand viloyatida joylashgan Ajirim – Jom – Anjirli – Sarig‘ul – Ibrohim-ota deb nomlangan aholi maskanlari orqali Samarqand shahri tomonga yo‘nalib, Xon-charbog‘, Juma-bozor (Juma) yoki Oq-soy orqali Samarqandga yetib borgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ruscha manbalarda bir necha bor Ajirim degan aholi maskani tilga olingan bo‘lib, bu yer Samarqand viloyatidan Jom orqali Chiroqchi bekligi Besh-chashma amlokligidagi Ayritom qishlog‘idan, undan keyin esa Sho‘r-bozor qishlog‘iga, u yerdan esa Qoratikan (*hoz.* Ko‘kdala qishlog‘i)ga, u yerdan esa Beglamish amlokligi markazi – Beglamish qishlog‘idan o‘tib, Qarshi bekligiga qarashli Neko‘z orqali Qarshi shahriga yetib borgan. Ya‘ni Ajirim nomli aholi markazi Chiroqchi bekligining shimolida – Samarqand viloyatinining bugungi Kattaqo‘rg‘on volosti (bugungi Nurobod tumani)da joylashgan edi. Shu nomdag‘i qishloq beklikning

janubiy hududlari yaqinida ham joy olgan bo‘lib, hozirgi kunda Yakkabog‘ tumanida Ajrim deb ataladigan aholi maskani mavjud.[7,105]

Ushbu yo‘lda oz bo‘lsa-da, karvonsaroy va uning yonida suv saqlanadigan inshootlar ham mavjud bo‘lib, ulardan biri Beklamish amlokligiga qarashli Sho‘r-bozor qishlog‘ida joylashgan edi. Sho‘r-bozordagi pishiq g‘ishtdan qilingan inoshoot karvonsaroy o‘rni yoki sardoba ekani yaxshi o‘rganilmagani bois, unchalik aniq emas. Shunga qaramay, me‘moriy o‘ziga xosliklariga qarab ushbu yodgorlik XVI asrga, Abdullaxon II davrida qurilgani taxmin qilinadi. So‘nggi o‘rta asrlarda ham karvonlar uchun xizmat ko‘rsatgan ushbu majmua Sho‘r-bozor qishlog‘ining xalqaro karvon yo‘li uchun ahamiyatli joy bo‘lganini ko‘rsatadi.[8,87]

Chiroqchi bekligi aholistining iqtisodiy-maishiy hayoti asosan geografik shart-sharoitlarga, xususan, iqlimga bog‘liq bo‘lib, sun‘iy sug‘orish imkoniyati yuqori bo‘lgan daryo havzalari, tog‘ yonbag‘irlaridagi aholi maskanlaridan farqli holda chorvador aholi bahor oyining yog‘ingarchilik mo‘l bo‘lishidan manfaatdor edilar. Buxoro amirligining bir qator bekliklarida bo‘lgani kabi Chiroqchi bekligi aholisi uchun bahorda o‘t-o‘lanlarning ko‘p bo‘lishi natijasida chorva mollaridan keladigan tushum yuqori bo‘lar, bu esa aholining turmush sharoiti yaxshilanishiga zamin yaratar edi. Buning teskarisi bo‘lgan yillarda esa qashshoqlashuv kuzatilib, iqtisodiy muammolar kuchayishiga olib kelar edi. Chorvador aholi shunday vaziyatlarga ko‘p tushgani uchun iqlimi yaxshi joylarni tanlab, o‘zlariga makon qurishga intilar edi. Bunday vaziyatda ko‘p hollarda chorvadorlar yaylov tanlab ko‘chib yurishga yoki kech kuz va qishda o‘z qishloqlarida yashab, bahor va yozni o‘z mol-hollarini o‘latish uchun tog‘larga yaqin qir-adirlarda o‘tkazishga intilganlar. Beklikning Qashqadaryo daryosi yuqori havzasiga yaqin joylashgan Tosh-ariq, Qayirma va Xo‘ja-qo‘rg‘on amlokliklarida ushbu daryodan u yoki bu darajada suv olish imkoniyatiga ega bo‘lsalar, beklik markazidan ancha uzoqda – shimoli-g‘arb va g‘arbda joylashgan Besh-chashma va Beklamish amlokliklaridagi ayrim qishloqlar Zarafshon daryosidan suv oluvchi Eski Anhor kanali orqali ekinlarni suv bilan ta‘minlashga intilganlar. [9,66]

Chiroqchi bekligining sun‘iy sug‘orish imkoniyati bo‘lмаган qismlarida la‘lmi yerlarga ekin ekish imkoniyati bo‘lsa-da, bu imkoniyat beklikning barcha hududlari uchun xos emas edi. Masalan, Besh-chashma amlokligining toqqa nisbatan yaqin qishloqlari aholisi la‘lmi yerlarda tarvuz yetishtirishsaalar, ayrim qishloqlar aholisi, xususan, Beklamish amlokligi aholisi ko‘proq sug‘orilmaydigan mahsulotlar – bug‘doy va arpa yetishtirish bilan shug‘ullanar edilar. Biroq hosil olish bahorning yog‘in-sochinli kelishiga bog‘liq edi. Beklikning ma‘muriy markazi – Chiroqchi shahri va uning atrofidagi Qashqadaryo daryosi havzasidagi qishloqlar aholisi esa bog‘lar, polizlarga ega bo‘lib, beda ekib, undan iqtisodiy foyda ko‘rish anchagina keng yoyilgan edi. Chiyal amlokligiga qarashli qishloqlarning ayrimlarida ham bu holat kuzatilib, yilning ma‘lum vaqtida suv mo‘l, muayyan bir oylarida esa qurib qoladigan

Chiyal-soy barqaror bo‘lmasa-da, dehqonchilik qilish uchun sharoit yaratardi. Beklikning o‘troq hududlarida – sharqiy hududlarda uzum, anor, anjir, shaftoli, o‘rik, olma, nok, behi, olcha, bodom va jiyyadan yaxshi hosil olinib, ular qo‘shni amlokliklar bozorlaridan tashqari, boshqa bekliklardagi bozorlarga ham olib borilgan. Beklikning bunday hududlarida yetishtirilgan bog‘dorchilik va poliz mahsulotlari sug‘oriladigan joylarga daromadning 60%ini tashkil qilgan bo‘lsa, la‘lmi yerlarda yetishtirilgan mahsulotlar – tarvuz, kunjut, bug‘doy, arpa va hokazolar 15% atrofida bo‘lgan.[10,95]

Chiroqchi bekligida yetishtirilgan la‘lmi yerlarning tarvuzlari atrof-tevarakda ancha mashhur bo‘lib, Xon-bandi qishlog‘i va atroflari aholisi bu ishning anchagina hadisini olgan edilar. Beklik aholisi yetishtiradigan yana bir mahsulot kunjut bo‘lib, uning yog‘ini sotishdan katta foyda olingan. Kunjut asosan Chiyal amlokligida yetishtirilgan. Rus mualliflari Besh-chashma amlokligiga qarashli Arab-bandи qishlog‘i aholisi ham cheklangan miqdorda kunjut ekkanliklari haqida yozib qoldirishgan.

Chiroqchi bekligi, shuningdek, atrofdagi Qarshi va G‘uzor bekliklarida ekinlarga katta zarar keltiradigan tabiiy ofatlar orasida chigirtka keltirgan zarar ancha katta edi. Chigirtka nafaqat yaylovlarga, balki sun‘iy sug‘oriladigan va la‘lmi yerlardagi ekinlarga ham zarar yetqazib, aholining turmush tarzini nihoyatda qiyinlashuviga olib kelgan.

Chiroqchi bekligining sug‘oriladigan unumdar yerlari va qo‘shni bekliklar – Qarshi va G‘uzorda, shuningdek, Yakkabog‘ va Shahrisabzdagi o‘sha kezlarda “tanob” deb ataladigan yerlarda yaxshi ishlov berilsa yuqori hosil olish imkonni bo‘lgan. Masalan, serdaromad mahsulot o‘laroq qovun 1 tanobdan o‘rtacha 1 – 2 ming dona hosil olinsa, yaxshi ishlov berilgan bir tanob yerdan 4 – 5 ming dona qovun olish imkoniyati bo‘lgan. Shunday xaridorgir poliz mashulotlaridan yana biri qovoq bo‘lib, mahalliy aholi uni “kadi” deb ham ataganlar. Beda ham shular qatoriga kirib, asosan bahor va yoz oylari, qisman esa erta kuzda o‘sadigan ushbu o‘simlikdan 4-5 marta hosil o‘rib olinib, uning bozori chaqqon bo‘lgan. Shuningdek, daromad keltiruvchi meva o‘rik bo‘lib, undan olinadigan foyda ancha yuqori bo‘lgan. Chiroqchi bekligi va unga qo‘shni dehqonchillikka mos hududlarda lavlagi, sabzi, turp, karam, piyoz, bodring, no‘xat, yasmiq, loviya, qovun, tarvuz, qovoq yetishtirilib, aholi tomonidan keng iste‘mol qilingan. Ushbu mahsulotlarni ekish oilalar uchun ancha daromadli hisoblangan.[11,82]

Buxoro amirligining boshqa hududlarida bo‘lgani kabi Chiroqchi bekligi aholisining ijtimoiy hayotida masjidlarning o‘rni katta bo‘lgan. Biroq ko‘pchilik bekliklardan farqli holda ushbu beklik qishloqlarida jome masjid yoki oddiy masjidlar ham bo‘lmasdan, asosan yirikroq qishloqlarda – amloklik markazidagi jome masjid (juma masjid)larda jamoaviy namoz o‘qilgan. Shunday masjdilar beklik markazi bo‘lmish Chiroqchi qo‘rg‘onida, Sichqonchi-soydagi Chiyal masjidi va Beglamish

amlokligidagi masjid turli qishloqlardan kelib juma namozi ado etiladigan joylar bo‘lgan. [12,120]

Qisqasi, Chiroqchibekligi aholisining xo‘jalik turmush tarzi va iqtisodiy-maishiy hayoti bilan tanishib chiqish shundan beradiki, Buxoro amirligi davrida beklik 7 ta amloklik va ular tarkibidagi 120 ga yaqin qishloqlarni o‘z ichiga olib, ular aholisining katta bir qismi ko‘chmanchi chorvador aholi “qora-uy” – o‘tovlarda yashagan bo‘lsa, bir qismida esa paxsa uylardan qurilgan o‘troq aholi yashab, ular hayotida dehqonchilik turmush tarzi yetakchilik qilgan. Ulardan birinchisining xo‘jalik hayotida va iqtisodiy-maishiy hayotida chorva mollarini boqish ustuvorlik qilgan bo‘lsa, o‘troq dehqon aholi ekin-tikinchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Мирза Абдал Азим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийа (История мангытского государства) / Изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л.М. Епифановой. – М., 1962;
2. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеи. (Тожик тилидан таржима. Сузбоши, изохлар муаллифлари Вохидов Ш. ва Чориев З.). – Тошкент: Академия, 2001;
3. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Тошкент: Университет, 2001.
4. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – М., 1843; Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г.
5. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии, Вып. XXXVI. – СПб. 1888. – С. 112-147 // <https://vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIX/1880-1900/Evreinov/text1.htm>;
6. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1: Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть 1: Бухара. – Ташкент: Туркпечатъ, 1926. ¹ Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 136.
7. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г. // <https://vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIX/1880-1900/Evreinov/text1.htm>
8. Мавлонов Ў. Марказий Осиёning қадимги йўллари. – Б. 196, 286.
9. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г. // <https://vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIX/1880-1900/Evreinov/text1.htm>
10. Ҳакимов А. Қашқадарё вилоятининг анъанавий хунармандчилиги // Мозийдан садо. – 2008. – №4. – Б. 4.

11. Суюнов С., Раҳмонов Ҳ. Эски Анхор каналининг бунёд бўлиш тарихи // ҚарДУ хабарлари. Махсус сон, 2020. – Қарши давлат университети, 2020. – Б. 135-137.
12. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г. // <https://vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIX/1880-1900/Evreinov/text1.htm>